



ENERGETIKA SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMINI VA IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI YAXSHILASH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 27-iyul kuni yoqilg‘i-energetika tarmog‘idagi kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari so‘nggi o‘n yilda energetika sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilganini ta’kidladi. Sohaga xususiy sektor va xorijiy investorlarni jalb qilish uchun zarur huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratildi.

Natijada energetika tarmog‘iga 23 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritildi, joylarda umumiy quvvati 9,5 gigavatt bo‘lgan elektr stansiyalari ishga tushirildi. Elektr va gaz tarmoqlari, podstansiyalar, transformatorlar hamda gaz taqsimlash qurilmalarini yangilashga 30 trillion so‘m yo‘naltirildi.

Shu bilan birga, yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, tizimni boshqarish, joylarda talab va ijro intizomini ta‘minlash bo‘yicha jiddiy kamchiliklar saqlanib qolayotgani ko‘rsatib o‘tildi.

— Ochiq aytish kerak. Energetikada muammo mablag‘da emas, chunki qancha kerak bo‘lsa, topib beryapmiz. Muammo tizimning boshqaruvida, — dedi Prezident.

Ayrim hududlarda infratuzilma deyarli bir xil bo‘lsa-da, elektr va gaz ta‘minoti sifati keskin farq qilishi qayd etildi. Bu, avvalo, rahbarlarning talabi, nazorati va shaxsiy mas‘uliyati turlicha ekani bilan izohlandi.

Joriy yilning iyun-iyul oylarida elektr tarmoqlarida 4 mingga yaqin avariya sodir bo‘lgan. Oqibatda ayrim hududlarda aholi va tadbirkorlar 8-10 soatgacha elektrsiz qolgan. Ayni paytda ko‘plab hududlarda iste‘molning o‘shishi va infratuzilmaga tushadigan yuklama oldindan hisobga olinmagan.

Tarmoqdagi elektr energiyasi yo‘qotishlari va 17,2 foizni tashkil etmoqda. O‘tgan olti oyda 4,8 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi yo‘qotilgan.

ASKUE va ASKUG tizimlari joriy qilinganiga qaramay, yuz minglab elektr va gaz hisoblagichlari markazlashgan tizimga ma‘lumot uzatmayotgani ko‘rsatib o‘tildi. Bu iste‘molni to‘g‘ri hisobga olish, yo‘qotishlar va debitor qarzdorlikni kamaytirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Davlatimiz rahbari energetika tizimidagi har bir rahbarning ishi, eng avvalo, odamlarning kundalik hayotida va tadbirkorlik faoliyatida sezilishi kerakligini ta’kidladi.

Tizimdagi jiddiy kamchiliklar uchun energetika vaziri va “Hududiy elektr tarmoqlari” rahbari lavozimidan ozod etildi. “Milliy elektr tarmoqlari”, “Issiqlik elektr stansiyalari”, “O‘ztransgaz” va

“Hududgazta‘minot” rahbarlariga yil yakunigacha sinov muddati belgilandi.

Energetika vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” va “O‘zenergoinspektsiya”ning yangi rahbarlari bugundan yangicha ish uslubini joriy qilishi shartligi qayd etildi.

Yig‘ilishda elektr va gaz ta‘minoti bilan bog‘liq ishlarni “tumanbay” va “mahallabay” tashkil etish bo‘yicha yangi tizim belgilab berildi. Har bir hududning aholi, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy obyektlar kesimida energiya iste‘moli balansi shakllantirildi.

Qaysi mahallada tarmoq, transformator yoki gaz taqsimlash qurilmasini yangilash zarurligi aniq belgilanadi. Avariyalarni kamaytirish, hisoblagichlarni yagona tizimga ulash, energiya yo‘qotishlari va qarzdorlikni keskin qisqartirish bo‘yicha manzilli dasturlar ishlab chiqiladi.

Bu borada Yangiyo‘l tumanida namunaviy tizim yaratish vazifasi qo‘yildi. Tumandagi 51 ta mahallada aholi va tadbirkorlarning elektr hamda gazga bo‘lgan oylik, choraklik va yillik ehtiyoji to‘liq o‘rganiladi.

Davomi 2-betda

SAMIMIY MINNATDORLIK

Tavallud kunim munosabati bilan chin dildan tabriklab, samimiy qutlovlar va ezgu tilaklarini yo‘llagan davlat va hukumat boshliqlariga, xorijiy siyosat va jamoat arboblari, ishbilarmon doiralari vakillariga, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoalariga, nuroniylar, yoshlar, xotin-qizlar va tadbirkorlarga, turli kasb egalari bo‘lgan barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Mening sha’nimga bildirilgan bu tabrik va tilaklarni, avvalo, ko‘p millatli xalqimiz va davlatimizga yuksak hurmat va ehtirom ifodasi, Yangi O‘zbekistonning dunyo miqyosida ortib borayotgan obro‘-e’tibori va nufuzining e’tirofi sifatida qabul qilaman.

Fursatdan foydalanib, bag‘rikeng va oliyanob xalqimizga yana bir bor chin dildan o‘zinning cheksiz mehrim va hurmatimni bildiraman.

Jonajon Vatanimizda erkin va farovon, obod hayot qurishga qaratilgan islohotlarimizni qo‘llab-quvvatlab, ularda faol ishtirok etayotgan ko‘p millatli xalqimizning aql-zakovati va fidokorona mehnati bilan oldimizga qo‘ygan yuksak va sharaflı maqsadlarga albatta erishamiz deb ishonaman.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

YANGI TOSHKENTDA BARPO ETILAYOTGAN ZAMONAVIY BINOLAR KO‘ZDAN KECHIRILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent shahrida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasida bo‘ldi. Bu yerda shaharning keng ko‘lamli maketi va raqamli xaritasi asosida qurilishlarning umumiy borishi, yirik obyektlarning o‘zaro joylashuvi hamda navbatdagi bunyodkorlik rejalari haqida axborot berildi.

Transport va muhandislik infratuzilmasini qurilishlar bilan uyg‘un rivojlantirish, yashil hududlar va jamoat makonlarini o‘zaro bog‘lash, Yangi Toshkentni poytaxtning amaldagi hududi bilan uzviy bog‘lash masalalari ko‘rib chiqildi. Barcha loyihalarni yaxlit shaharsozlik konsepsiyasi asosida, yuqori sifat va me‘moriy uyg‘unlikni ta‘minlagan holda amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Shundan so‘ng Prezident Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Yangi Toshkentda barpo etilayotgan kampusini ko‘zdan kechirdi. Majmua Yangi Toshkent qurilishining birinchi bosqichi doirasida bunyod etilmoqda. Ayni paytda rektorat va ayrim fakultetlar binolarida yakuniy qurilish va pardoqlash ishlari olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari binolarning ichki makonlari, o‘quv va ma‘muriy xonalarning joylashuvi, muhandislik tarmoqlari hamda hududni obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. Mutasaddilar qurilishning borishi, binolarni jihozlash va kampusni foydalanishga tayyorlash choralari haqida axborot berdi.

Yangi kampus tarkibida o‘quv binolari, ilmiy laboratoriyalar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona, talabalar turar joylari, sport va madaniyat inshootlari bo‘ladi. Bu yerda ta‘lim, ilmiy-tadqiqot va talabalar hayotini bir makonda uyg‘unlashtirgan yaxlit muhit yaratiladi.

Universitetda xalqaro ta‘lim standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish, boshqaruv tizimini “Yangi O‘zbekiston” universiteti tajribasi asosida transformatsiya qilish rejalashtirilgan. O‘quv jarayonlarini zamonaviy raqamli platformalar orqali boshqarish ko‘zda tutilgan.

Davomi 2-betda

PUBLITSISTIK TAFAKKUR QUDRATI



Odam — kechagi noqulayliklarni qiyinchiliklarni bir zumda unutib, bugungi qulayliklarga tez ko‘nikadigan yaratiq. Bu xususiyat inson hayotiga ham, jamiyat tafakkuriga ham xos. Taniqli olim, mashhur publitsist, davlat va jamoat arbobi Quدراتilla Rafiqovning “MILLAT SHAVKATI” kitobi — fikr ahlini ana shu nuqsondan qutulib, odamlar va butun jamiyat hayotida yuz berayotgan ijobiy jihatlarni payqashga, ularning paydo bo‘lishiga sababchi shaxsiyatlar mehnatini qadrlashga chorlaydigan asar. Muallif jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarni maqtash, sanab o‘tish bilangina cheklanmaydi. U zohiriy voqealar ortidagi ma’nolarni izlaydi, bir qarashda o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan hodisalar o‘rtasidagi ichki aloqani topadi va o‘qirmanni ham shu jarayonga jalb qiladi.

Publitsist bilan voqeanavis o‘rtasida farq bor. Voqeanavis voqeani so‘zlab beradi. Publitsist esa nima uchun shunday bo‘lgani, uning ortida qanday qonuniyat turgani va u jamiyat hayotida nimani o‘zgartirayotganini anglashga harakat qiladi.

Quدراتilla Rafiqov maqolalarida ana shunday teran tahliliy nigoh yaqqol ko‘zga tashlanib

turadi. U mamlakatimiz hayotidagi o‘zgarishlar haqida yozar ekan, voqeaning tashqi manzarasi bilan kifoyalanmaydi. U har bir bunyodkorlik ortida tafakkurdagi o‘zgarish, har bir diplomatik qadam ortida tarixiy xotira, har bir yutuq ortida millatning o‘ziga bo‘lgan qat’iy ishonchini ko‘radi.

Kitob sarlavhasiga ko‘chgan “MILLAT SHAVKATI” nomli maqola ana shunday fikrlash usulining yorqin namunasi desam, aslo adashmayman.

Muallif talqinida Samarqand — millat o‘zligini namoyon etadigan ma’naviy makon. Shaharning tarixiy maqomini tiklash —

Davomi 3-betda



Davlatimiz rahbari raisligida 21-iyul kuni hudud va tarmoqlarda o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar va yil yakunigacha amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Garchi yig‘ilish kun tartibidan iqtisodiy o‘shish sur‘atlari, investitsiya, eksport, energetika, banklar va hududlar faoliyati bilan bog‘liq masalalar o‘rin olgan bo‘lsa-da, muhokamalarning tub mohiyati ancha keng edi. Chunki har bir iqtisodiy ko‘rsatkich ortida inson qadrlari ulug‘lash, oilalar daromadini oshirish, jamiyat farovonligini ta‘minlash, yurtdagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda xalqni rozi qilishdek ezgu maqsadlar turadi.

ENG ISHONCHLI MEZON — XALQ HAYOTIDA YARATILGAN NATIJA

Yig‘ilishda tahlil qilingan raqamlar iqtisodiyotda jadal harakat, izchil o‘shish va yangi imkoniyatlar shakllanayotganini yaqqol namoyon etdi. Joriy yilning birinchi yarmida iqtisodiyot 8,5 foiz o‘sdı. Sanoatda 8 foiz, xizmatlar sohasida 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz, qishloq xo‘jaligida 4,7 foizli o‘shish ta‘minlandi. Investitsiya hajmi 28 milliard dollarga, eksport ko‘rsatkichi 14,4 milliard dollarga yerdı. “Fitch” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari O‘zbekistonning suveren kredit reytingini bir pog‘onaga yaxshiladi.

Biroq iqtisodiy o‘shishning haqiqiy qiymati uning inson hayotida qanday

o‘zgarish yaratgani bilan belgilanadi. Raqamlar odamlar daromadida, munosib ish o‘rinlarida, tadbirkorning yengillashgan og‘irida, obod mahallada va aholining ertangi kunga ishonchida ifodasini topgandagina ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladi. Shu ma’noda, mazkur yig‘ilish iqtisodiy natijalar tahlili bilan birga bugungi rahbar kadrlarning tafakkuri, mas‘uliyati va berilgan imkoniyatni xalq roziligiga aylantira olish qobiliyatiga qo‘yilgan yuksak talabning ham amaliy ifodasi bo‘ldi.

Davomi 5-betda

ENERGETIKA SOHASIDA BOSHQARUV TIZIMINI VA IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI YAXSHILASH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

Boshlanishi 1-betda

Zarur infratuzilma, ta’mirlash ishlari va ularni moliyalashtirish manbalari aniq reja asosida belgilanadi. Barcha ishlar 1-oktyabrgacha yakunlanib, Yangiyo‘l elektr va gaz ta’minoti bo’yicha namunaviy tumanga aylantiriladi.

Ushbu tajriba keyinchalik respublikaning barcha tuman va shaharlariga tatbiq etiladi. Energetika tizimi rahbarlari hududlardagi eng og’ir tumanlarga biriktirilib, ishlarni mahalliy hokimliklar bilan birgalikda tashkil qiladi.

Energetika tarmog’ida raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratiladi.

Energetika vazirligi tarkibida Yoqilg’i-energetika tarmog’ini raqamlashtirish va sun’iy intellektni joriy etish markazi tashkil etiladi. Markaz “ishlab chiqarish — uzatish — taqsimlash — yetkazish” zanjirini to’liq tahlil qilib, sohani rivojlantirishning muqobil ssenariyalarini ishlab chiqadi.

ASKUE va ASKUG ma’lumotlari sun’iy intellekt asosida tahlil qilinib, shubhali

iste’mol, yo’qotish va qarzдорlik holatlarini avtomatik aniqlaydigan platforma ishga tushiriladi.

Shuningdek, tarmoqdagi har bir rahbar va xodim faoliyati aniq natija ko’rsatkichlari asosida baholanadi. Bunda avariya-yiv va rejali uzilishlar, yo’qotishlar, debitor qarzдорlik, quvvatlar rezervi hamda ta’mirlash dasturlarining bajarilishi asosiy mezon bo’ladi.

Yig’ilishda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik masalalari ham muhokama qilindi. Hozir tabiiy gaz yetkazib berish qiyin bo’lgan 1 ming 916 ta mahalla mavjud.

Ushbu hududlardagi xonadonlarning isitish tizimini barqarorlashtirish, elektr infratuzilmasini mustahkamlash va qo’shimcha energiyaga bo’lgan ehtiyojni ta’minlash bo’yicha aniq hisob-kitoblarni tayyorlanadi. Birinchi navbatda moliyalashtirish talab etiladigan mahallalar bo’yicha alohida dastur ishlab chiqiladi.

Bugungi kunda 3 million 700 ming xonadon suyuqlirilgan gazdan foydalanadi. Tizim raqamlashtirilib, tartibga keltirilgan

bo’lsa-da, gazni o’z vaqtida va kafolatli yetkazib berish masalasi to’liq hal etilmagani qayd etildi.

Suyultirilgan gaz ta’minotiga xususiy sektorni keng jalb qilish vazifasi qo’yildi. Bu borada dastlab Andijon viloyatida yangi tajriba joriy etiladi.

Tadbirkorlarga o’zi import qilgan yoki biridan xarid qilgan suyuqlirilgan gazni aholi va biznes subyektlariga yetkazib berish imkoniyati yaratiladi. Ijtimoiy reyestruga kiritilgan oilalarga esa suyuqlirilgan gaz xaridi uchun subsidiya beriladi.

Yil yakunigacha bu borada “Andijon tajribasi” yaratilib, keyinchalik boshqa hududlarga tatbiq etiladi.

Suyultirilgan gaz ishlab chiqarishni yil yakunigacha rejadagi 520 ming tonna o’rniga 606 ming tonnaga yetkazish belgilandi.

Shuningdek, xonadonlarning real ehtiyojidan kelib chiqib, gaz ballonlari hajmini tabaqalashtirish taklif qilindi. Suyultirilgan gazni tashish, saqlash va tarqatish tizimi xorijiy tajriba hamda xalqaro standartlar asosida qayta ko’rib chiqiladi.

Davlatimiz rahbari energetika sohasi uchun zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega

kadrlar tayyorlash masalasiga ham alohida to’xtaldi.

Hozir 25 ta texnika oliyigohida energetika yo’nalishida yilliga 5,5 ming mutaxassis tayyorlanmoqda. Biroq ta’lim amaliyot bilan yetarlicha bog’lanmagani sababli bitiruvchining ishga kirishib ketishiga 2-3 yil vaqt ketmoqda.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalaridagi yoqilg’i-energetika yo’nalishlari bo’yicha ta’lim dasturlarini to’liq yangilash, laboratoriya va poligonlarni zamonaviy talablarga moslashtirish topshirildi.

Yangi o’quv yilidan 3-kurs talabalarining yarmi, 4-kurs talabalarining barchasi dual ta’limga qamrab olinadi. Quyosh va shamol generatorlari, elektr zaryadlash uskunallari hamda boshqa yangi texnologiyalar bo’yicha mutaxassislar tayyorlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

Yig’ilish yakunida belgilangan vazifalarni qisqa muddatlarda va sifatlil amalga oshirish, tarmoqda ijro intizomi hamda shaxsiy mas’uliyatni tubdan kuchaytirish bo’yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

O‘ZA

QONLIKO‘L TUMANI TIBBIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR

Yurtimizda sog’liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, aholiga sifatli tibbiy xizmat ko’rsatish va zamonaviy tibbiyotni rivojlantirish maqsadida qator davlat dasturlari qabul qilindi. Bu islohotlar Qoraqalpog’istonning Qonliko‘l tumanida ham tibbiyot sohasining rivojlanishiga katta turki berildi.

Mazkur tuman tibbiyot birlashmasida 136 o‘ringa ega shifoxona, 1 ta ko‘p tarmoqli va 4 ta oilaviy poliklinika, 4 ta oilaviy shifokorlik punkti, shuningdek, 10 ta tibbiyot punkti aholiga xizmat ko‘rsatib keladi.

Ochig‘i, avvallari qishloq va chekka hududlarda tibbiy xizmat sifati mutlaqo qoniqarsiz edi. Ayniqsa, zamonaviy diagnostika apparatlari, malakali shifokorlar va tez tibbiy yordam xizmati bilan bog‘liq muammolar ko‘pchilikni qiynab keldi. Davlat dasturlari doirasida ana shu muammolarni bosqichma-bosqich hal etila boshladi.

Qonliko‘l tumanida ham tibbiyot muassasalari rekonstruksiya qilinib, moddiy-texnik bazasi mustahkamlab borildi. Tuman markaziy shifoxonasi, oilaviy poliklinikalar va tibbiyot punktlari ta’miralanib, aholi uchun zamonaviy va qulay sharoit yaratildi. Qabul bo‘limlari, palatalar va laboratoriyalar yangilandi.

— Xususan, 2021-yilda mahalliy byudjet hisobidan birlashma davolash bo‘limlari, Jayhun oilaviy shifokorlik punkti ta’mirdan chiqarildi. 2022-yilda birlashmaning yuqumli kasalliklar va tez yordam bo‘limlari, Beshko‘pir, Qulamet jirov, Qonliko‘l oilaviy shifokorlik punktlari ham keng ko‘lamda ta’mirlandi. 2023-yili esa tuman tibbiyot birlashmasi binosi va 8 ta tibbiyot punktida xuddi shunday sozlash-tiklash ishlari bajarildi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Darixa Bekbergenova. — Keyingi yilda “Tashabbusli byudjet” dasturi asosida “Sari oltin” OFY hududida tez yordam shoxobchasining yangi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. 2025-yili esa birlashma huzurida Yemergency departament bo‘limi yangi binosi bunyod etildi. Shuningdek, ichki dorixona va laboratoriya bo‘limlari ham ta’mirlangan. 2026-yilda xalqaro tashkilotlarning grant mablag‘lari asosida bolalar dam olish va fizioterapiya xonasi tashkil etildi.

Mamlakatimiz rahbarining 2022-yil 25-apreldagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori asosida Beshko‘pir va Qulamet jirov oilaviy shifokorlik punktlari, 2024-yilda esa Qonliko‘l oilaviy shifokorlik punkti yangidan ochildi.

Bugun davlat dasturlari asosida tuman tibbiyot birlashmasi yangi zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. 2021-yildan buyon zamonaviy diagnostika xizmatlari tumanning o’zida ham ko’rsatila boshladi.

Tibbiyotdagi raqamlashtirishdan asosiy maqsad aholiga tezkor, sifatli va qulay tibbiy xizmat ko’rsatish, shifokorlar ishini yengillashtirish va tibbiy ma’lumotlarni elektron shaklda saqlashdan iborat. Qonliko‘l tumani tibbiyot birlashmasida to’liq lokal tarmoqlar tortilib, 2024-yil avgustdan boshlab DMED elektron platformasi ishga tushirilgan.

— Ilgari fuqarolarni qabul qilish, tibbiy varaqalarni to’ldirish va ma’lumotnomalar berish tartibi asosan qog’oz shaklida yuritilardi. Bu esa ko’p vaqt olish bilan birga xatoliklarga, ayrim hujjatlarning yo’qolishiga sabab bo’lgan. Hozir elektron ro’yxatga olish, onlayn navbat, elektron tibbiyot kartasi, elektron resept, raqamli hisobot tizimlari joriy etildi. Bu tizimlar orqali mijoz haqidagi ma’lumotlar kompyuter bazasida saqlanadi. Shifokorlarimiz bemorning avvalgi tashxislari, tahlil natijalari va davolash tarixini tez ko’ra oladi, — deydi tibbiyot birlashmasining inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi mutaxassisi Qodir Nurmanov. — Shuningdek, raqamlashtirishning eng qulay jihatlardan biri — onlayn navbat tizimi bo’ldi. Bu uzun navbatlarni kamaytirish, aholi vaqtni tejab, tibbiyot muassasalaridagi tartibini yaxshilashga xizmat qildi.

Raqamlashtirishni jadallashtirish maqsadida 2025-yilning o’zida birlashma ko’plab

kompyuter, planshet, televizor, router, infokiosk, turli imkoniyatga ega printer kabilarni bilan ta’minlangan. Bu jarayon kelgusi yillarda ham davom ettiriladi. Jumladan, barcha tibbiyot muassasalarini yagona elektron tizimga ulash, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, mobil tibbiyot ilovalarini ko’paytirish va fuqarolar uchun onlayn xizmatlarni rivojlantirish maqsad qilgan.

Tibbiyotda kadrlar masalasi kun tartibidan tushmaydi. Malakali shifokor va o’rta tibbiyot xodimlarisiz aholiga sifatli tibbiy xizmat ko’rsatish mumkin emasligi kundek ravshan. Shu bois, kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish

tashkiliy-metodik bo‘limi mudiri Genjegul Zaretdinova. — Xususan, tibbiyot institutining 6-kurs bitiruvchilari, klinik ordinatorlar va magistrlar to’liq stavkada ishga joylashtirildi. Muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, seminarlar, amaliy treninglar, onlayn darslar tashkil etildi. Shuningdek, ko’plab tibbiyot xodimlari Nukus shahridagi tibbiyot markazlari, respublika ixtisoslashtirilgan klinikalari, malaka oshirish institutlarida tajriba oshirib kelyapti. Ochig‘i, ilgari tumanimizda kardiolog, endokrinolog, nevrolog, reanimatolog, pediatri kabi mutaxassislar yetishmasdi. Endi bunday mutaxassislarni tayyorlash va tumanga jalb



Salomatlik — el boyligi

“Mamlakatimizda davlat tibbiy sug’urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va uni 2026-yil yakuniga qadar respublika bo‘yab to’liq amalda qo‘llash rejalashtirilgan. Sug’urta doirasida ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari uchun aholidan qo‘shimcha to‘lov undirilmaligi ko‘zda tutilgan.



va ish sharoitini yaxshilash bo’yicha keng ko’lamli ishlar bajarilyapti.

— Birlashmamizda 866 xodim ishlaydi. Ular oliy, birinchi va ikkinchi toifali shifokorlar, o’rta bo’g’in tibbiyot xodimlari, oliy toifali, birinchi va ikkinchi toifali kichik tibbiyot xodimlaridan iborat. Avvalgi yillarda tumanimizda ayrim ixtisoslikdagi shifokorlar yetishmasligi, tajribali mutaxassislarni bir joyda saqlab qolish kabi muammolar bor edi. Ularni hal etishda so’nggi besh yilda qator chora-tadbirlar ko’rildi, — deydi Qonliko‘l tumani tibbiyot birlashmasining

qilish natijasida aholiga ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat turlari kengaydi. Ko’plab tibbiy xizmatlar tumaning o’zida ko’rsatilyapti.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-sentabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida faoliyat yuritayotgan shifokorlar oylik ish haqiga qo’shimcha har oylik ustama to’lanadigan olish va chekka hududlar ro’yxatini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori asosida birlashmada olish hududga kiritilgan Jayhun mahallasidagi oilaviy shifokorlik punkti va “Sari oltin” OFY hududidagi 16-oilaviy poliklinikada ishlovchi 7 shifokorga oylik ustama to’lab kelinmoqda.

Prezidentimizning 2024-yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug’urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori bilan davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar tizimini joriy etish, tibbiy sug’urta orqali aholiga moliyaviy yengillik yaratish va sog’liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi mexanizmlar birlashmada bosqichma-bosqich yo’lga qo’yilmogda.

Kasalliklarni erta bosqichda aniqlash maqsadida 18 yoshgacha bo’lgan bolalar va yoshlar o’rtasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko’rik o’tkazilmoqda. 40 va undan katta yoshdagi aholi o’rtasida turli kasalliklarning oldini olish maqsadida skringing ko’riklari reja asosida o’tkazilmoqda. Aniqlangan kasalliklar bo’yicha bemorlar tuman, viloyat, respublika darajasida ambulator va statsionar sharoitlarda davolanmoqda.

Birlashmadagi 136 o’rinli statsionarda o’tgan yili qariyb 5000 ga yaqin bemor davolanib, salomatligini tikladi. Bu ko’rsatkich tibbiyot muassasasida aholiga tibbiy xizmat qamrovi kengayib, davolash sifati tobora yaxshilanayotganini ko’rsatadi.

Shifo topganlarning 363 nafarida jarrohlik amaliyoti o’tkazildi. Xususan, 67 bemorda yuqori texnologik operatsiyalar bajarilgani tibbiyot sohasidagi muhim yutuqlardan bo’ldi. Chunki bunday operatsiyalar zamonaviy tibbiy uskunalar, yuqori malakali mutaxassislar va ilg’or texnologiyalarni talab etadi. Ilgari bunday murakkab operatsiyalarni faqat respublika ixtisoslashtirilgan markazlarida bajarish mumkin edi. Hozir mahalliy sharoitda ham bunday imkoniyat mavjud. Shuningdek, “Master-klass” dasturi asosida respublika darajasidagi malakali mutaxassislar ishtirokida 26 fuqaroda murakkab operatsiya muvaffaqiyatli o’tkazildi. Bu nafaqat bemorlar salomatligini tiklash, balki mahalliy shifokorlar malakasi va tajribasini oshirish, yangi jarrohlik usullarini o’rganishda ham qo’l keladi.

Qonliko‘l tumani tibbiyot birlashmasida profilaktik tibbiyotga alohida e’tibor qaratilib, aholi o’rtasida kasalliklarni erta aniqlash va oldini olish harakati kuchaydi. Ayniqsa, yurak-qon tomir, qandli diabet, onkologik va yuqumli kasalliklar bo’yicha skringing tekshiruvlari muntazam tashkil etilgan. Natijada ko’plab kasalliklar dastlabki bosqichda aniqlanib, o’z vaqtida davolash imkoniyati yaratildi.

Ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida ham salmoqli ishlar bajarilmoqda. Homilador ayollarni muntazam tibbiy ko’rikdan o’tkazish, tug’uruq xizmatlari sifatini yaxshilash, chaqaloqlar va bolalarni profilaktik emlash orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Mamlakatimizda davlat tibbiy sug’urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda va uni 2026-yil yakuniga qadar respublika bo‘yab to’liq amalda qo‘llash rejalashtirilgan. Sug’urta doirasida ko’rsatiladigan tibbiy xizmatlar va dori vositalari uchun aholidan qo‘shimcha to‘lov undirilmaligi ko‘zda tutilgan.

— Tizimning asosiy afzalligi shundaki, birinchidan, sifatlil tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyati kengayadi. Fuqarolar belgilangan standartlar asosida tibbiy xizmatdan foydalanadi. Bu xizmat sifati va nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, aholi xarajati kamayadi. Kasallik holatida davolanish uchun shaxsiy mablag‘ sarflash darajasi pasayadi. Chunki xizmatlarning bir qismi davlat sug’urtasi orqali qoplanadi. Ijtimoiy himoya kuchayib, kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari sifatlil tibbiy xizmatdan kengroq foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘ining davolash ishlari bo’yicha o’rinbosari Majid Sodiqov. — Eng asosiy, tibbiyot muassasalari o’rtasida raqobat yuzaga keladi. Davlatga tegishli va xususiy tibbiyot muassasalarini tizimga jalb qilish orqali xizmat sifati yaxshilanadi. Ochiqlik va raqamlashtirish kuchayadi. “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” kabi axborot tizimlari joriy qilinib, bemorlar to’g’risidagi ma’lumotlar elektron shaklda yuritiladi. Bu esa, o’z navbatida, hujjatbozlik va korrupsiya xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Bu kabi ijobiy o’zgarishlardan xulosa chiqarish mumkinki, Qonliko‘l tumanida kelgusida ham aholiga yuqori sifatlil tibbiy xizmat ko’rsatish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo’lib qoladi.

Minajatin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI TOSHKENTDA BARPO ETILAYOTGAN ZAMONAVIY BINOLAR KO‘ZDAN KECHIRILDI

Boshlanishi 1-betda

Keyin davlatimiz rahbari Yangi Toshkentda barpo etilayotgan O‘zbekiston Milliy kutubxonasining yangi binosidagi qurilish ishlarni ko’zdan kechirdi.

Mazkur obyekt yangi shaharning asosiy ilm-fan va ma’rifat maskanlaridan biri sifatida bunyod etilmoqda. Yangi Toshkent qurilishi, avvalo, ta’lim va ma’rifat obyektlaridan boshlangan bo’lib, Milliy kutubxona ushbu konsepsiyada muhim o’rin tutadi.

Ayni paytda majmuada qurilish va pardozlash ishlarning 90 foizi bajarilgan. Kutubxonani joriy yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ortiq bo’lgan to’rt qavatli bino bir vaqtning o’zida 1 ming 420 nafar kitobxonga xizmat ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’ladi. Uning me’moriy yechimida milliy an’analar va zamonaviy uslub uyg’unlashtirilgan.

Kutubxonada kitob fondlarini saqlash, hisobga olish, ularning xavfsizligini ta’minlash va zararsizlantirish uchun maxsus yuqori texnologiyali xonalar tashkil etiladi. Xalqaro va milliy yirik kutubxonalarning elektron bazalaridan onlayn foydalanish imkoniyati ham yaratiladi.

Ko’zi ojiz fuqarolar uchun maxsus o’quv va tadqiqot muhiti, 300 o’rinli kafe, galereya, sport va dam olish hududlari barpo etiladi. Shu tariqa kutubxona kitobxonlik, ilmiy izlanish va madaniy-ma’rifiy muloqotni birlashtiradigan zamonaviy markazga aylanadi.

Prezidentimiz qurilish va jihozlash ishlarni sifatlil yakunlash, kutubxona fondi, raqamli xizmatlar hamda foydalanuvchilar uchun yaratiladigan sharoitlarni o’zaro uyg’un holda tashkil etish bo’yicha ko’rsatmalar berdi. Tashrifning navbatdagi manzili “Yangi O’zbekiston” universitetining yangi kampusi bo’ldi.

Ellik gektar maydonda barpo etilayotgan majmua 10 ming nafar talabaga mo’ljallangan. Unda fakultetlar va rektorat binolari bilan birga kutubxona, muzey, ko’rgazma va multimedia zalldari, sport majmuasi, suzish havzasi hamda talabalar turar joylari joylashadi.

O‘ZA

BMT BOSH ASSAMBLEYASI O‘ZBEKISTON TASHABBUSI BILAN ILGARI SURILGAN REZOLYUTSIYANI QABUL QILDI



BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan “Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarining rolini kuchaytirish to’g’risida”gi rezolyutsiyani qabul qildi.

BMTga a’zo 61 ta davlat mazkur rezolyutsiyaga hammuallif bo’ldi va ular dunyoning barcha mintaqalarini qamrab olgan. Bu O’zbekistonning ijtimoiy kun tartibini ilgari surish hamda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlar rolini mustahkamlashga oid tashabbusi xalqaro maydonda keng qo’llab-quvvatlanayotganini ifoda etadi.

O’zbekistonning BMTdagi doimiy vakili Ulug’bek Lapasov mazkur tashabbus Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning global ijtimoiy taraqqiyot kun tartibini ilgari surish hamda xalqaro hamkorlikning parlament o’lchovini mustahkamlashga qo’shgan amaliy hisssasi sifatida taklif etilganini ta’kidladi.

Rezolyutsiyada 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning milliy qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimlarini kuchaytirish, kambag’allikni qisqartirish, munosib mehnatni ta’minlash, sifatlil ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy integratsiyani rag’batlantirishdagi hal qiluvchi o’rni alohida e’g’rofl etilgan.

Hujjatda xotin-qizlar va yoshlarning parlament faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy taraqqiyot manfaatlari yo’lida raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda rivojlanayotgan mamlakatlarni qo’llab-quvvatlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi muvaffaqiyatli

Yangi kampusda ta’lim, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya va talabalar hayotini yagona muhitda uyg’unlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Qayd etilganidek, ushbu ta’lim va ma’rifat maskanlari Yangi Toshkentda zamonaviy ilm-fan va ta’lim muhitini shakllantirib, yoshlarning bilim va salohiyatini ro’yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Yangi Toshkentda barpo etilayotgan zamonaviy futbol stadionidagi qurilish ishlari ham ko’zdan kechirildi.

55 ming tomoshabinga mo’ljallangan ushbu arena qurilishi 2025-yil noyabr oyida boshlangan. Ayni paytda bunyodkorlik ishlarning 65 foizi bajarilgan.

Stadion 2027-yilda 20 yoshgacha bo’lgan futbolchilar o’rtasidagi jahon chempionatining asosiy arenas sifatida xizmat qiladi. Bu yerda musobaqaning yarim final va final uchrashuvlarini o’tkazish rejalashtirilgan.

Olti qavatli sport majmuasi FIFAning barcha talabalariga muvofiq barpo etilmoqda. Unda sportchilar, muxlislar va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun zamonaviy sharoitlar yaratiladi.

Tomoshabinlarning qulay harakatlanishi uchun 10 dan ortiq eskalator o’rnatiladi. Stadion hududida uchta mashg’ulot maydoni va 5 ming 500 o’rinli avtoturargoh tashkil etiladi. Arena yaqinida metro bekati ham barpo qilinadi.

Inshootning me’moriy qiyofasida zamonaviy uslub va milliy an’analar uyg’unlashtirilgan. Qurilishda “yashil energiya”, “aqli boshqaruv” va ekologik barqarorlik tamoyillariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qayd etilganidek, mazkur arena yirik xalqaro musobaqalarni qabul qilish bilan birga, yoshlar sportini rivojlantirish, professional futbolchilar tayyorlash va mamlakatda zamonaviy sport infratuzilmasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari qurilish ishlarni belgilangan muddatda va yuqori sifat bilan yakunlash, stadionni transport tizimi hamda Yangi Toshkentning umumiy shaharsozlik muhiti bilan uyg’unlashtirish bo’yicha ko’rsatmalar berdi.

“Dunyo” AA
Nyu-York shahri

PUBLITSISTIK TAFAKKUR QUDRATI



Qozoqboy YO‘LDOSH,
Toshkent Amaliy fanlar
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

➤ **Boshlanishi 1-betda**

Bu samimiy fikr kitobning umumiy g‘oyasini anglab yetishda muhim ahamiyatga ega.

Qudratilla Rafiqov talqinida islohotlar insonning qadr-qimmatini, turmushi va kelajakka ishonchida namoyon bo‘lishi kerak. Shu ma’noda, kitobda Prezident obrazi nafaqat davlat rahbari, balki millat tafakkurini harakatga keltirishga intilayotgan yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Bunyodkorlikdan tafakkur o‘zgarishi sari” maqolasi ham ana shu masala tadqiqiga bag‘ishlangan. Oddiy maishiy manzara — Prezidentimizning zamonaviy savdo-ko‘ngilochar markazga borishi jamiyatning farovonlikka munosabati, odamlarning bugun yaxshi yashash huquqi va rahbar bilan xalq o‘rtasidagi masofa haqida mulohaza yuritishga undaydi.

Muallifning fikricha, katta islohot odamlarning o‘z imkoniyati, qadri va kelajagi haqidagi tasavvurini ham yangilashi kerak. Zero, tafakkur o‘zgarmasa, jamiyatdagi boshqa islohotlar barqaror bo‘lmaydi. Bu — kitobning eng muhim falsafiy xulosalaridan biri.

“Uyg‘onayotgan arslon” maqolasi maqsadini muallif: “...ko‘zlagan manzilga intilayotgan va bu jarayonda ulkan yutuqlarga erishayotgan Millatimiz lideri Shavkat Mirziyoyevning jasorat va sadoqatga erilgan faoliyatini haqida so‘zlash va bu kayfiyatni sizga ham ulashishdir” tarzida belgilaydi. E’tibor qiling, u axborot bermaydi, balki sog‘lom kayfiyat hosil qilib, uni o‘zgalarga-da ulashmoq istaydi.

Q. Rafiqov Prezidentimizning tinim bilmas faoliyatidagi yetakchi maqsad haqida: “...ming yillarki, ota-bobolari birga ahil-inoq yashab kelgan, ammo turli siyosiy sabablarga ko‘ra ajralib va hatto ...bir-biroviga yovga aylanishiga ozigina qolgan xalqlarimizni birlashtirish, siltab uzib olingan tarixiy tomlarga malham qo‘yish, bir zamonlar chuqur uyquga ketgan “arslon”ni uyg‘otish ekan...” degan to‘xtamga keladi.

Shu vaqtga qadar birov tanimagan va tan olmagan yurtimizning uyg‘onishini maqola muallifi o‘zbek sportchilarining 208 davlat vakillari qatnashgan olimpiadada 13-o‘rinni, Osiyoda 4-o‘rinni, turkiy, musulmon va MDH davlatlari orasida 1-o‘rinni egallashida, 3 o‘zbek sportchisining “ikki karra olimpiya chempioni” bo‘lgani, boks va shaxmatdagi tengsiz yutuqlarida ko‘radi. Nega shu vaqtga qadar bo‘lmagan bunday olamshumul natijalarga endilikda erishildi deb savol qo‘yadi muallif. U hodisalar zamiridagi qonuniyatlarini topadi. Shu bois, yuqorida sanalganlar shunchaki sportdagi bir yutuq emas, balki millatning har jihatdan dunyo hisoblashishi kerak bo‘lgan fan sayohatiga aylanib borayotgani natijasi deb biladi.

“Kutib ol, dunyo” maqolasida muallif o‘z to‘xtamini dalgan aytdi: “Mendan Shavkat Mirziyoyevning bugungacha el-yurtimiz oldidagi eng buyuk xizmati nimadan iborat deb so‘rashsa, hech ikkilanmay, O‘zbekiston va xalqimiz sha’nini, obro‘-sini qayta joyiga qo‘yganiida deb aytay olaman”. Muallif bunga Prezidentimizning O‘zbekiston deyilsa, hamisha “Pokiston”, “Afg‘oniston” deb talmovsraydigan dunyoga O‘zbekiston va o‘zbekni adashmaydigan darajada tanitib qo‘yganiini asos qilib ko‘rsatadi.

Q. Rafiqovning o‘zlikni anglash, identilikka erishish istiqloqlning dastlabki choragida ham ko‘ngildagiday bo‘lmaganini aytdi: “...milliy kodning eng asosiy unsuri bo‘lgan til borasidagi siyosatimiz eski zamonlamikidan ko‘p farq qilgan emas” yo‘sinida izohlashi holatga sog‘lom tanqidiy qarash namunasi deyish mumkin. Qudratilla Rafiqov mustaqillikning dastlabki chorak asrida davlat tiliga munosabat jamiyat kutgan darajada o‘zgarmaganini ochiq aytdi. Rasmiy mustaqillikka erishilgan bo‘lsa-da, milliy tilning davlat, ilm-fan va xalqaro muloqotdagi mavqei to‘liq qaror topmagan edi.

Muallif Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron nutqini o‘zbekcha so‘zlar bilan yakunlaganini alohida ma’naviy hodisa sifatida qabul qiladi. Chunki yaqin o‘tmishda maishiy munosabatlarda doirasida qolib ketishi mumkin

deb qaralgan tilga jahonning yirik davlatlaridan birining rahbari hurmat ko‘rsatmoqda.

Albatta, til obro‘si faqat xorijiy rahbarning bir necha o‘zbekcha so‘zi bilan belgilanmaydi. Uning haqiqiy mavqei davlat boshqaruvi, ilm-fan, ta’lim, texnologiya va madaniyatda qay darajada ishlashiga bog‘liq.

Ammo ramziy hodisalar ham jamiyat ruhiyatiga ta’sir qiladi. Ular odamga o‘z tilining faqat uy va bozor tili emas, dunyo bilan teng muloqot qila oladigan madaniy qudrat ekanini his ettiradi.


Rafiqov publitsistikasining kuchi shundaki, u siyosiy protokoldagi kichik bir detaldan milliy qadr-qimmat haqidagi katta xulosalarga keladi.

Chindan ham o‘zbek tilining obro‘-sini oshirish borasida Prezidentimiz misli ko‘rilmagan ishlar qildi. Tilni rivojlantirish departamenti hamda har bir tashkilotga davlat tili bo‘yicha maslahatchi lavozimining tayinlanishi tilga e’tibor borasida hech qayerda ko‘rilmagan mislsiz ish bo‘ldi. Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lish, o‘rtog turk alifbosini qabul qilishga xayrixohlik o‘zligimizni namoyon etishning yorqin ko‘rinishlaridir.

Maqolada muallif davlatimiz rahbarining shu va shu kabi ishlari haqida to‘xtalgach: “Bugun jahonning bizga bo‘lgan qarashi ham, muomalasi ham o‘zgardi”, degan xulosaga keladi. Ushbu maqolada Prezidentimizga Fransiya ikki asrdan ortiq vaqt davomida olamdagi o‘ntagina kishiga berilgan “Faxriy legion” ordenining topshirilishi uning shaxsiga ko‘rsatilgan jahonshumul ehtirom ekanini alohida ta’kidlaydi.

“MILLAT SHAHKATI” kitobida Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi munosabatlarga ham keng o‘rin berilgan. Muallif Markaziy Osiyo, qo‘shni xalqlar yaqinlashuvini tarixiy tomlarini qayta bog‘lash, sun’iy begonlashuvlarni yengish va umumiy xotirani tiklash jarayoni sifatida ko‘radi.

“Tarix sinovlaridan o‘tgan haqiqat: O‘zbek va qirg‘izni hech kim va hech qanday kuch bir-biridan ayira olmaydi” nomli maqolada o‘zbek va qirg‘iz xalqlari o‘rtasidagi azaliy do‘stlik va birodarlik rishtalari haqida so‘z



“Alamim bor...” deb atalgan. Maqolada muallif alam bilan shunday deydi: “...biz ham uzoq yillar afsonaviy tariximiz, madaniyatimiz, ajdodlarimiz kim-u, bu dunyoda joyimiz qayerda bo‘lganini unutdik. Dunyoning cheti, uchinchi darajali bir davlat, xalq deb qarashlariga ko‘nikdik. Va eng alamlisi, zamonaviy dunyo sahnidagi madaniy va tarixiy o‘rnimiz qumga singgan suvday “yo‘qolib” qoldi...”.

Muallif tarixni necha bor tahrir qilgan etnos va uning yurti ochun ahlining ko‘pchiligi yodidan chiqqanidan alami keladi. Bu hol

qo‘yilishi uning navbatdagi milliy Uyg‘onishga xizmat qilishini dalolatlashiga to‘xtalanadi.

Q. Rafiqov bugun qilinayotgan ishlar bilan millatning shonli o‘tmishida amalga oshirilgan yumushlar o‘rtasida o‘xshashlik ko‘radi. Chunonchi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining yaralishi va faoliyatida ko‘plab mamlakatlarning mutaxassislari qatnashayotgani bilan Turkistonda oldin yuz bergan Rennessanslarning xalqlar va fanlar integratsiyasi natijasida sodir bo‘lgani o‘rtasida muvoziylik mavjud. U har qanday yuksalish milliy biqiy muhitida kichik miqyosda emas, balki keng hamkorlik natijasida yuz beradigan o‘ziga xos global hodisa ekanini ta’kidlaydi. Bu xildagi qarashlarni milliy tafakkurning chuqurlashib va yangilanib borayotganidan xayrli belgidir deyish mumkin.

Kitobda olti yuzga yaqin chetga chiqib ketgan qimmatli artefaktlarning Islom markaziga qaytarilishi uning rufasini ko‘tarishga xizmat qilishi aytiladi. Muallif bir vaqtlar o‘n ming xayriya bino qurishni orzulagan Turon hukmdori Abdullaxonning armonlari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgani tarixning davomiyligi belgisi ekaniga ham ishora qiladi.

“O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston” gacha: YO‘QOTILGAN QALBNI IZLAB...” suhbat maqolasida muallif Olmoniyadagi “Berliner Zeitung” nashri siyosiy sharhlovchisi Tomas Fasbendering: “O‘zbekistonni nafaqat geosiyosiy, balki sivilizatsion nuqtayi nazaridan ham qit’aning markazi deyishga asoslar bor. Menimcha, olis o‘tmishda ushbu zaminda paydo bo‘lgan ikki buyuk yuksalish — Islom uyg‘onish davri va Temuriylar renessansi

obyektiv va subyektiv sabablari o‘yga botiradi. Olim tarix borasidagi qarashlar mustaqillikning ilk choragida ham o‘zgarmaganini: “Davlat ijtimoiy-mafkuraviy sektorda xuddi ittifoq zamonlaridagidek qattiqqo‘l va yagona “o‘yinchi”ga aylandi. Bitta farqi, u mafkurasiz edi, xolos” yo‘sinida tamomila aniq va o‘ziga xos izohlaydi. Shu tariqa mafkura borasidagi yakranglik, albatta, fikrsizlikka olib kelishi juda ishonarli yo‘sinida ko‘rsatib beriladi.

Muallif jamiyatda din, milliy o‘zlik va tarixga bo‘lgan hadiksirab qarash sovet konservatizmidanda notavonroq holatni vujudga keltirgani, uning eng qo‘pol shakli jamiyat va millatning na turkiy, na islomiy mansublikka aloqador ekani o‘jarlarcha tan olimaganida yaqqol namoyon bo‘lganini aytdi. Na milliy va na diniy jihatdan biror etnosga yaqinlikni tan olmaslik falsafasi jamiyatni jismonan yakkalab qo‘ygani, ma’lum ma’noda zaiflashtirgani ham ochiq aytiladi. Yaqin tariximizdagi qo‘shnilarimizga qarshi olib borgan siyosatimiz bizdagi milliy davlat va millat qurish jarayonlarini ortga surib yuborgani alohida ta’kidlanadi.

Q. Rafiqov yozadi: “Afsuslanarli tomoni, bugun mintaqadagi besh davlatda tarix fanining besh xil, ba’zi o‘rinlarda bir-biriga mutaqo teskari versiyalari o‘qitilmoqda. Holbuki, ularning o‘tmishi bir edi”. Bu xilma-xillik mintaqadagi etnoslar o‘rtasida bir-biroviga yoytirab qarashga xizmat qilishi muallif tomonidan afsus bilan ko‘rsatib o‘tiladi. Muallif identililik (kimlik yoki o‘zlik) tushunchasining asosini til, madaniyat, tarix, tarixiy xotira, din tashkil qilishini ta’kidlab, bularni inkor qiladigan, mafkuraviy vakuum jamiyat uchun ham, davlat uchun ham xatarli ekaniga alohida urg‘u beradi.



Chindan ham o‘zbek tilining obro‘-sini oshirish borasida Prezidentimiz misli ko‘rilmagan ishlar qildi. Tilni rivojlantirish departamenti hamda har bir tashkilotga davlat tili bo‘yicha maslahatchi lavozimining tayinlanishi tilga e’tibor borasida hech qayerda ko‘rilmagan mislsiz ish bo‘ldi.

ulashgan madaniyat va ilm-fan nafaqat Sharq xalqlari yoki Islom olami, balki insoniyat tarixi uchun ham o‘ta muhim edi” tarzidagi haqqoniy e’tirofiga munosabat bildirish asnosida o‘zining millat tarixidan chuqur xabardorligi va buni o‘zgaral bilan bo‘lishib, harakat energiyasiga aylantirish borasidagi o‘ylari bilan o‘rtoqlashadi.

Muallifni ancha vaqt shonli tarixga ega millat nomidan boshqalar gapirgani, kimlarning bizni atrofga tanishtirgani, biz esa uzoq yillar o‘sha kuchlar oldida “churq etmay” o‘tiradigan zabonsiz kimsalarga aylanganimiz, bu holning

Biror sohada fikr va munosabat erkining yo‘qligi, ruxsat berilishiga qarab o‘ylash mumkinligi taraqqiyotga g‘oy bo‘ladi. Lekin egamanlikning dastlabki choragida maqolada aytilganidek: “... dekolonial kontekstdagi kimlik, an’analar silsilasi, o‘tmish, etnik mansublik yoki millat, milliy davlat tushunchasi va hatto tarixiy shaxslarga nisbatan qarashlarimizni ham hukmron rejim belgilab berdi. Va qanchalik g‘alati eshitilmasin, aynan shu qarashlari bilan u o‘zi inkor etayotgan sotsial mafkuraning “yo‘nalgan” muqobiliga aylandi”. Chindan shunday edi.

Maqolada Shavkat Miromonovich tomonidan qo‘shnilar o‘rtasidagi muzlarni eritish, ular bilan samimiy munosabatlarni tiklashga kirishishning samarasi o‘laroq, 2018-yilga kelib, Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat kengashi ish boshlagani qayd etiladi. Garchi tuzilma yarim institutsional bo‘lsa-da, uzoq yillik tanaffus va o‘zaro tushunmovchiliklardan keyingi bir-birini anglash, fikrni bir joyga jamlab olish uchun o‘ta muhim platforma vazifasini bajargani ta’kidlanadi. Muallif: “O‘zbekiston bir asrlik tarixida ilk bor o‘zining turkiy etnosga mansubligini rasman e’lon qildi”, deb yozadi iftixor bilan.

Olimning nemis jurnalisti bilan suhbatda egamanlikning dastlabki yillarida yurtimizdagi holat haqida aytgan: “...davlatning rasmiy tarzda o‘zini ifoda etadigan, egamanligini tasdiqlaydigan barcha ramzlar: bayroq, gerb, madhiya, pul, armiya, chegaralari bor, ammo ularga qo‘shimcha yana qandaydir notugallik ham borday edi. O‘zbekistonning davlat sifatida milliy “kim”ligidan bo‘lak hamma narsasi bor edi. Uning qalbi — o‘zligi yo‘q edi. ...U bir asrdan ortiq vaqt nari sug‘urib olingan qalбини qidirayotgan, uningsiz o‘zini notugal va noraso seayotgan edi” tarzida og‘riqli, ammo haqqoniy fikrlari har qanday odamni jiddiy o‘yga tolilshga majbur qiladi. Muallif millat o‘zligini qayerdan izlashi va qanday topishi haqida juda jiddiy va g‘oyat ehtirosli fikr yuritadi. U shonli tarixga ega millatning shu tarixga munosib buguni bo‘lishi kerakligini, bugunni esa juda yaxshi va haqqoniy o‘rganilgan o‘tmish ustigagina qurish mumkinligini, yurtning shonli tarixi shunchaki xotira emas, balki bugun va kelajak qurilishi kerak bo‘lgan poydevor bo‘lishi lozimligi yangilg‘i salmoqli fikrlar harorati yo‘sinida ifoda etiladi. Prezidentimiz tashkil etayotgan Yangi O‘zbekiston eskisidan millatning o‘zligini topishga yo‘naltirilgan bilan farq qilishini ta’kidlaydi.

Kitobdagi bir maqola “Bizni ulug‘ g‘oya — vatan manfaati birlashtiradi” deb ataladi va unda mamlakat kasaba uyushmalarining rivojida Prezident Shavkat Mirziyoyevning o‘rni qayd etiladi. Muallif: “Ro‘y-rost e’tirof etish kerak, nodavlat tashkiloti bo‘lmish kasaba uyushmalarining “o‘zgarishi” O‘zbekiston rahbari sifatida ish boshlagan ilk kunlarga to‘g‘ri keladi. Prezidentimizning xalq davlat uchun emas, davlat odamlar uchun xizmat qilishi kerak degan insonparvar siyosati mamlakatimizdagi nafaqat davlat, balki jamoat tashkilotlari uchun ham o‘tli chaqirig‘ bo‘ldi”, deb yozadi va bunday yondashuv nodavlat tashkiloti bo‘lmish kasaba uyushmalarining ravnaqiga kuchli siyosiy va huquqiy asos bo‘lganini qayd etadi. Muallif Shavkat Mirziyoyev iqtidoriga kelganga qadar bo‘lgan davlat g‘oyasi: “Davlatmi, nodavlatmi — har qanday tashkilot va muassasa borki, bitta “ustun” g‘oyaga bo‘ysundirilgandi. Bu oyog‘i loyga botib qolgan agrar sohani qulog‘idan tortish siyosati edi”, deya ochiqchasiga yozadi.

Qudratilla Rafiqovning kitobi garchi o‘ta jiddiy ijtimoiy-siyosiy va amaliy pragmatik masalalar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, juda tushunarli va hazmi oson yo‘sinida bitilgan. Bunga muallif ifoda samimiyati va tabiiyligi orqali erishgan. Muallif o‘qirman bilan yuzma-yuz turganday yozadi: “Sezib turibman, maqolaning so‘nggi qismlari sizni zeriktirdi. Ensangizni qotirgan bo‘lsa ham ajablanmayman. Ruhi, matndagi xronologik ohang sovet ...davri kayfiyatini eslatuvchi ayni yo‘nalish bugun hayotimizda favqulodda “begona”ga aylanib qolganek...” Bunday dangal iqrar o‘ziga ishongan yozar tomonidagina qilinadi. Negaki u keyingi o‘rinlarda o‘qirmanni o‘ziga ergashtira olishiga ishonadi. Usulb jozibasi, ifoda ravonligi, so‘zlarni o‘rinli qo‘llash mahorati kitobning o‘qishli bo‘lishiga xizmat qiladi.

Muallifning “sanoat qo‘qimi”, “desovetizatsiya”, “kunlash (hasad qilish), “qo‘rli” (ustuvor, hurmatli), “bonitet” (yer unumdorligi), “aktorlar” (harakatdagi, faoliyatdagi), “markaz”ning qirmizi gumbazli saroylari”, “buzmakor” (destruktiv), “tarix ikonasi” (tarix hashami), “multikulturalizm” (ko‘pmadaniyatlilik) singari o‘ta kam ishlatiladigan so‘zlarni o‘rinda qo‘llay bilish uning yozqilariga betakrorlik baxsh etgan.

Meni bir o‘qirman sifatida kitob muallifning bitiklariga sarlavha qo‘yish mahorati qoyil qoldirdi. Avvalo, kitobning nomi bir necha ma’noli ekani bilish diqqatni tortadi: uni “Millatning shavkati” yoki “Millatning shavkatli o‘g‘li”, yoxud “Millatning Shavkat Mirziyoyevi” tarzida tushunish va talqin qilish mumkin. Qizig‘i, bu versiyalarning har biri ham bitik mohiyatiga to‘la mos keladi. Shuningdek, maqolalarning “Shavkat Mirziyoyev: “Men umrimni shu xalqqa tikkanman!”, “Bizni ulug‘ g‘oya — vatan manfaati birlashtiradi”, “Bunyodkorlikdan tafakkur o‘zgarishi sari”, “O‘zbekistondan “Yangi O‘zbekiston” gacha: yo‘qotilgan qalbni izlab...” , “Uyg‘onayotgan arslon”, “Kutib ol, dunyo” singari tarzda nomlanishi kishini beixtiyor o‘ziga jalb etadi.

Xullas, bu kitob o‘qirmanni jamiyatda yuz berayotgan o‘zgarishlardan xabardor qilibgina qolmay, bu o‘zgarishlar muallifi bo‘lmish Prezidentimizni unga yaqinlashtiradi, hamfikrga aylantiradi.



FERMERLAR MANFAATI VA ERKINLIGI qanday ta'minlanyapti?

Qishloq xo'jaligi

Biror sohadagi islohot haqida gap borganida, albatta, uning natijasi kutiladi. Ayniqsa, o'sha soha yillar davomida eskicha tizimda ishlagan, barcha harakatlarga qaramay, eng past ko'rsatkich qayd etilgan tarmoq bo'lsa. O'zbekiston qishloq xo'jaligi aynan shunday — shiddatli islohotlar sabab avval mehnatning samarasi deyarli ko'rinmagan eskicha tizimdan qisqa vaqtda raqamlashgan, ilm-fanga asoslangan ilg'or mexanizm shakllandi.

Yillar davomida qora terga botib, eng kam hosil oladigan, mahsulotini kimlargadir topshirishga majbur bo'ladigan dehqonlar o'rmini esa bugun zamonaviy agrar tarmoq vakillari, katta yer va daromadga ega tadbirkorlar, fermerlar egalladi. Sohada ishlab chiqarish hajmi oshib, bozor mexanizmlari keng joriy etildi. Yangicha yondashuvlar natijasida mamlakatimiz qishloq xo'jaligi bosqichma-bosqich ma'muriy boshqaruvdan iqtisodiy erkinlik va raqobat muhitiga o'tmoqda. Asosiysi, fermerlar haq-huquqlari himoyasi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Sohadagi islohotlar samarasini xorijiy nashrlar ham e'tirof etib, bot-bot maqolalar e'lon qilayotgani boisi shunda. Xususan, Pokistonning "Diplomatic News Agency", "Islamabad Post" nashrlari, "Associated Press Of Pakistan" axborot agentligi xabarlarida O'zbekistonning qishloq xo'jaligini takomillashtirish borasidagi islohotlari haqida so'z boradi. Agentlik O'zbekistonda sohani raqamlashtirish orqali qishloq xo'jaligi yerlarini ajratishda shaffof mexanizm yo'lga qo'yilib, fermerlarga elektron shaklda auktsion orqali yerni erkin sotib olish imkoniyati yaratilgani, ular jangarga olingan yerlarga ekinlarni mustaqil joylashtirishi, yetishtirgan mahsulotlarga xaridorni mustaqil tanlashi, xarajatlarni kamaytirish orqali yuqori hosil olib, daromadini oshirishi, faoliyatini birgalikda yuritish uchun kooperativlarga birlashish imkoniyatlari joriy etilganini yozdi.

Ispaniyaning "El Mundo Financiero" nashri esa "Yangi O'zbekiston qishloq xo'jaligining yangilangan tizimi fermerlar manfaatiga xizmat qilmoqda" sarlavhali maqola e'lon qildi. Unda bugun O'zbekiston fermerlariga berilayotgan imkoniyatlar, hatto ularning turli masalalarda fikr-mulohazalari va tavsiyalarini hisobga olish mexanizmi shakllantirilgani haqida so'z boradi. Ularning murojaatlari va takliflari asosida qonunchilik takomillashtirilayotgani, fermerlar bilan tizimli muloqot qilishda sun'iy intellekt joriy etilgani alohida tilga olinadi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish fermerlarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishdan boshlangani

bejiz emas. Chunki ular sohaning asosiy ishtirokchilari, tarmoqni rivojlantiruvchi kuch sanaladi. Shu bois, keyingi yillarda sohadagi yangicha yondashuvlar bevosita fermerlar bilan bog'lanadi.

Bugungi fermer yerni boshqaruvchi, bozorni tushunuvchi, texnologiyadan foydalanuvchi va o'z manfaatini himoya qila oladigan zamonaviy tadbirkordir. Yangi tizimning bosh maqsadi esa bitta — fermemning daromadi, oziq-ovqat xavfsizligi va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Bu borada aniq islohotlar kechayptiki, natijada fermerlar manfaatdorligi ham, ularning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hisssasi ham oshib boryapti.

Shunday islohotlarning muhimlaridan biri yer munosabatlarini takomillashtirish bo'ldi. Bu borada mutlaqo yangi tartib joriy etilib, qishloq xo'jaligi yerlarini ajratishda ochiqlik va shaffoflik ta'minlandi, elektron auktsion tizimi ishga tushirildi. Bu fermerlarga yerdan foydalanish huquqini qonuniy va kafolati asosda amalga oshirish imkonini bermogda.

Masalan, O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan faqat zaxirada turgan yerlarni hamma uchun ochiq elektron auktsion savdolar orqali erkin sotib olish imkoniyati yaratildi.

Fermerlarning ijara huquqi kafolatlari Yer kodeksi darajasida mustahkamlanib, yerdan foydalanuvchining o'z arizasiga yoki sudning qaroriga asosan ijara huquqi bekor qilinishi tartibi belgilandi. Shuningdek, yerga bo'lgan ijara huquqini asossiz bekor qilishga chekllovlar o'rnatildi. Endi yerning ijara munosabatlari tomonlar kelishuvi yoki sud qarori asosida hal etiladi. Bu ham fermerning kelajakka ishonchini mustahkamlaydi.

Ikkinchi muhim islohot — yangi tizim bo'yicha fermerlarga ijargaga olgan yerga ekinlarni mustaqil joylashtirish huquqi berildi. Prezidentimizning tegishli farmoni bilan 2026-yil

hosilidan boshlab fermer xo'jaliklari, klasterlar va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlari o'z yer uchastkalarida ekinlarni turlarini "Agroportal" ("Raqamli qishloq xo'jaligi" yagona integratsion platforma) orqali mustaqil ravishda joylashtiradi. Bunda davlat organlari tomonidan ekinlarni to'g'ridan to'g'ri belgilash amaliyoti bekor qilindi va ma'lumotlar raqamli platforma orqali shaffof yuritilishi belgilandi. Raqamli platformalar orqali ekinlarni joylashtirish amaliyoti inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish jarayonini shaffoflashtirmoqda. Bu esa bozor talabidan kelib chiqqan holda mahsulot yetishtirishga sharoit yaratyapti.



Uchinchidan, fermerlar faoliyati erkinligini ta'minlash bo'yicha yangi tizim joriy etilib, davlat buyurtmalari tizimi qisqartirildi. Ya'ni paxta va g'alla yetishtirishda erkin bozor tamoyillariga o'tib boryapmiz, bugun fermerlar xaridorni mustaqil tanlash imkoniyatiga ega.

Davlatimiz rahbarining 2021-yilda qabul qilingan tegishli qarori bilan davlat boshqaruvi organlari, shu jumladan, barcha darajadagi mahalliy hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqolqi don yetishtirishda agroteknik tadbirlarni o'tkazish, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash, bug'doyni sotish jarayonlari, shartnomalar tuzish, xo'jaliklarni don tayyorlash va qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi muayyan korxonalarga birlashtirish, respublika hududlari o'rtasidagi ichki tashuvlarga aralashuvi qat'iy tanqilqlangan.

"Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, bugungi kunda fermerlar birja savdolari orqali shartnoma tuzish, mahsulotni erkin realizatsiya qilish va daromadni mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Mahalliy amaldorlar fermerlar faoliyatiga aralashsa, ularga tahdid yoki haqorat qilsa,

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks asosida bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarimaga tortiladi.

Hozir fermerlar har bir hududda faoliyat yuritayotgan klasterlarning istalgani bilan shartnoma tuzish imkoniyatiga ega. Birgina Qashqadaryo viloyatida 15 ta paxta-to'qimachilik klasteri bor. Sohadagi ushbu yangi tizim xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan zanjnini birlashtirib, fermer xo'jaliklarining daromadini oshirishga xizmat qilmoqda. Xo'jaliklar klasterlar bilan o'zaro kelishgan xolda birja savdolarida (fyuchers, forward va spot) shartnoma tuzib faoliyat yuritaypti.

To'rtinchidan, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi fermerlar xarajatlarni kamaytirib,



Zafar MUSTAFOQULOV,
O'zbekiston fermerlari kengashi
raisi o'rinbosari

suvdan oqilona foydalanish sohadagi eng muhim vazifalardan biriga aylangan. Bu borada suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beryapti. Bunday texnologiyalar narxi arzon bo'lmagani bois, davlat doimiy ravishda soha vakillarini qo'llab-quvvatlayotgani ko'rinadi. Xususan, suv tejaydigan uskunalar qiymatining 30-40 foiz qismi, sarflangan elektr energiyasi to'lovlarining 100 foizi davlat tomonidan qoplab berilishi fermerlar manfaatdorligini yanada oshirdi.

Ayni paytda yurtimizda jami 2,8 million gektar yerda, sug'oriladigan ekin maydonlarining 66 foizida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Davlatimiz rahbarining tegishli farmon hamda qarori bilan yangicha yondashuv asosida suv hisobini yuritishni to'liq elektron shaklga o'tkazish ko'zda tutilgan. Endilikda "Suv hisobi" axborot platformasi orqali foydalanilgan suv miqdori aniq hisoblanadi va iste'molchilarga elektron tarzda ma'lum qilinadi.

Beshinchidan, kooperatsiya tizimi joriy etildi va bu ham sohadagi eng katta islohotlardan biri. Tizim fermerlarga faoliyatini birgalikda yuritish



uchun birlashish imkoniyatini yaratdi. Tizim "Qishloq xo'jaligi kooperativlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solingan bo'lib, hozir mamlakatimiz qishloq xo'jaligining turli

yo'nalishida mingdan ortiq qishloq xo'jaligi kooperativi faoliyat ko'rsatmoqda.

Birgina paxtachilik yo'nalishida yurtimiz bo'yab 92 ta qishloq xo'jaligi kooperativi ochildi. O'tgan yili tashkil etilgan 72 ta kooperativ bilan 765 ta fermer xo'jaligi o'rtasida birja savdolari orqali shartnomalar tuzilib, ular tomonidan 96 ming tonna paxta xomashyosi to'g'ridan to'g'ri qishloq xo'jaligi kooperativlariga yetkazib berildi.

Kooperativlarni qo'llab-quvvatlash va huquqiy himoya qilish borasida ham aniq mexanizm ishlaypti. Davlatimiz rahbarining o'tgan yili qabul qilingan tegishli farmoni bilan O'zbekiston fermerlari kengashiga fermer, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi kooperativlari manfaatlarini ko'zlab sudga davlat boji to'lamasdan da'vo arizalari kiritish hamda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi kooperativlari manfaatlarini ko'zlab sud muhokamasining istalgan bosqichida ishtirok etish, shuningdek, da'vo arizalari bilan bir qatorda apellyatsiya, kassatsiya, taftish tartibida shikoyatlar, arizalar taqdim etish huquqi berildi.

Ayni tizim sabab bugunga qadar fermerlarning 8,4 milliard so'm mablag'i tejab qolindi. Davlat tomonidan fermerlarning huquqiy himoyasini ta'minlovchi bunday amaliyot dunyoning birorta davlati tajribasida kuzatilmaydi.

Oltinchidan, fermerlar qishloq xo'jaligidagi islohotlar bo'yicha siyosiy munozaralarga jalb qilinib, fikr-mulohazalari va tavsiyalarini hisobga olish mexanizmi joriy etildi. Qabul qilish jarayonlarida fermerlarning ishtiroki kuchaytirildi. Ochiq muloqotlar, jamoatchilik muhokamalari va raqamli platformalar orqali fermerlar taklif va tashabbuslar bildirmoqda. O'zbekiston fermerlari kengashining "Fermer minbari" telegram guruhi orqali ochiq muloqot tizimi yo'lga qo'yilgan.

Bularning bari qonunchilik va sohaviy qarorlarni hayotga yaqinlashtirishga xizmat qilaypti. Jumladan, birgina Tadbirkorlar va ishblarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 167 fermer deputat sifatida saylanib, qonunchilikni takomillashtirishda faol ishtirok etmoqda.

Joriy yilda mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlarida fermerlar bilan jonli uchrashuvlar o'tkazilib, fikr va takliflari tinglandi. Muloqotlarda jami 156 ta taklif kelib tushgan bo'lib, ayni paytda ularning yechimi bo'yicha normativ hujjatlar loyihasi ishlab chiqilmoqda. Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy ravishda murojaatlar qabul qilinib, amaliy yechimlari berilyapti.

Shuningdek, fermerlar faoliyatiga ko'maklashish va qulay sharoit yaratish maqsadida sun'iy intellekt asosida ishlovchi



va fermerlarga tezkor maslahatlar beruvchi "Fermer AI" telegram boti ishlab chiqildi. Bu orqali sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish yangi bosqichga o'tmoqda.

Tasavvur qiling, toshkentlik Aziz aka otasidan meros qolgan uyni sotmoqchi. Biroq mulkka oid hujjatlar qachon rasmiylashtirilgani yoki soliq imtiyozlari muddati qachondan boshlanganini aniqlash uchun bir necha idoraga murojaat qilishga majbur. Yoki buxorolik Dilnoza opa o'z nomiga qaysi telefon raqami va bank kartasi biriktirilganini aniq bilmaydi. Natijada begona raqamlar yoki ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq xavotirlar tug'iladi. Yoxud kechki payt yot raqamdan kelgan "chegirma" haqidagi yana bir reklama xabari nafaqat tinchlikni buzadi, balki shaxsiy ma'lumotlar qayerdan tarqalgani haqida ham o'ylantirib qo'yadi.



Qulaylik

Bunday holatlar ko'pchilik uchun tanish. Ularning umumiy sababi esa bir xil: shaxsiy ma'lumotlarda oid axborot turli davlat organlari va tashkilotlarda tarqoq holda saqlanadi, fuqaro esa ular ustidan to'liq va qulay nazorat qilish imkoniyatiga ega emas.

Biroq bu kabi muammolar asta-sekin o'timishga aylanmoqda. Prezidentimizning 2026-yil 15-iyuldagi "Aholiga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlarini takomillashtirish hamda fuqarolar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori fuqarolar har kuni duch keladigan, kichikdek ko'rinsada, hayot sifatini pasaytiruvchi ana shunday

muammolarga zamonaviy va tizimli yechim yaratadi.

Ko'pchilikka tanish holat: ota-onadan meros qolgan uy-joyni o'z nomiga rasmiylashtirishni ish, oila tashvishlari yoki boshqa sabablar tufayli bir-ikki oyga kechiktirib qo'yamiz. Ilgari bunday holat jarima qo'llanilishiga sabab bo'lardi. Endi esa 2027-yil 1-yanvardan boshlab tartib o'zgaradi. Agar meros mulki o'z vaqtida rasmiylashtirilmasa, jarima emas, balki kechiktirilgan kunlar soniga mutanosib ravishda davlat boji undiriladi. Mazkur o'zgarishning mohiyati shundaki, davlat fuqaroni jazolashga emas, balki hayotda uchrab turadigan obyektiv

holatlarni inobatga olgan holda adolatli va qulay huquqiy tartibni ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Yana bir jihat. Uyni meros yoki yaqin qarindoshdan hadya tariqasida olgan bo'lsangiz, uni sotishda soliqdan ozod bo'lish muddati endi uy sizning nomingizga davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab hisoblanadi. Ilgari bu borada noaniqlik ko'p edi, odamlar notarius va soliq idorasi orasida tushuntirish izlab yurardi.

Ba'zan oila bankdan kredit olish uchun uyni garovga qo'yadi, lekin shu uyd yashashda davom etadi. Ammo rasmiy ro'yxatdan o'tishda muammo chiqardi — garovga oluvchining roziligi kerak bo'lardi. Endi bu qoida ham yumshatildi. Inson shu uyd yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tishi mumkin, faqat zarur bo'lganda undan chiqarilishiga oldindan rozi bo'lishi kerak, xolos. Oddiy qilib aytganda, kredit olinga oila endi uy-joy hujjatlari tufayli ikkilanib qolmaydi.

2026-yil 1-oktyabrdan boshlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (YIDXP) yana bir qulay elektron xizmat ishga tushiriladi. Endi fuqarolar uydan chiqmagan holda, oddiy smartfon orqali o'z nomidagi ko'chmas mulk yoki avtotransport vositasiga garov (taqiq) qo'yish yoki uni bekor qilish bo'yicha murojaat yuborishi mumkin bo'ladi. Eng muhimi, buning uchun banka yoki notarial idoraga borish talab etilmaydi. Shaxsni Face-ID texnologiyasi orqali tasdiqlashning o'zi kifoya qiladi. Shuningdek, kim sizning nomingizdan foydalanib, telefon raqami yoki bank kartasi ochganini ham portal orqali ko'rsa bo'ladi. Bugun, afsuski, birovning

nomidan aldb raqam ochib, shu orqali firibgarlik qilish hollari uchrab turadi. Endi fuqaroning o'zi buni nazorat qila oladi.

Yana bir muhim yangilik. Notarial harakatlar haqida fuqarolarni tekzor xabarot qilish tizimi joriy etiladi. Endi notariusda sizga daxldor hujjat rasmiylashtirilsa, masalan, nomingizdan ishonchoma tasdiqlansa, bu haqda YIDXP orqali darhol xabarnoma olasiz. Bu esa fuqaroga har qanday shubhali yoki ruxsatsiz amalga oshirilgan harakatlarni o'z vaqtida xabarot berish va zarur huquqiy choralarini ko'rish imkonini beradi. Natijada mulkiy huquqlarni himoya qilish kuchayadi, firibgarlik va boshqa noqonuniy harakatlarning oldini olish imkoniyatlari kengayadi.

Ayrim kishilar davlat xizmati uchun to'lov qilayotganda vositachi tizimlarga qo'shimcha foiz to'lab qo'yganini sezmay ham qoladi. 2026-yil 1-sentyabrghacha YIDXP orqali virtual to'lov kartasi ochish, unga bank kartangizdan pul o'tkazish va davlat xizmati uchun to'g'ridan to'g'ri shu karta orqali to'lov qilish imkoniyati yaratiladi. Yana hech qanday vositachilik yig'imisiz. Agar xizmat kechiktirilsa yoki asossiz rad etilsa, pulning avtomatik ravishda o'zingizga qaytadi. Ortiqcha yozishma, arizalar endi kerak emas.

Voyaga yetmagan bolalar o'z huquqini himoyalash uchun sudga murojaat qilsa, ular davlat bojidin butunlay ozod etiladi.

kutilmagan xabarlar ko'pchilikning joniga tekkani. 2026-yil 1-noyabrdan boshlab bunday tartib o'zgaradi. Tovar yoki xizmatni reklama qilish maqsadida telefon, SMS yoki elektron aloqa vositalari orqali murojaat qilishdan oldin reklama tarqatuvchi shaxs fuqaroning yozma yoki elektron shakldagi oldindan berilgan roziligini olishi shart. Qoida oddiy: rozilik bo'lmasa, reklama ham bo'lmaydi. Bu esa fuqarolarni kutilmagan reklama qo'ng'iroqlari va xabarlaridan ishonchliroq himoya qiladi.

Bundan tashqari, soat 18:00 dan ertasi kuni soat 09:00 gacha umuman telefon orqali reklama qo'ng'iroq va xabarnomalarni tarqatish taqiqlanadi. Oddiy qilib aytganda, kechki ovqat paytida yoki uxlash oldindan ortiqcha "reklama" qo'ng'iroqlari endi sizni bezovta qilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur qarorda insonning kundalik hayotida tez-tez uchraydigan, maydadek tuyulsa-da, ko'p vaqt va asab talab qiladigan muammolarga aniq yechimlar nazarda tutilgan. Merosni rasmiylashtirishdagi kechikishlar, mulkka qo'yilgan taqiqlar haqida o'z vaqtida xabardor bo'lmaslik, shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq noaniqliklar, kutilmagan reklama qo'ng'iroqlari va xabarlarining har biri bo'yicha aniq huquqiy mexanizm va amalga oshirish muddati belgilandi.

Eng muhimi, bu qaror davlat xizmatlarini fuqaro uchun yanada sodda, tekzor va qulay qilishga qaratilgan. Chunki odamlar davlat islohotlarini, avvalo, qonun matni orqali emas, balki kundalik hayotda yaratadigan amaliy qulayliklar orqali his qiladi.

Aziz aka endi merosni osonroq rasmiylashtiradi. Dilnoza opa o'z nomidagi kartalarni nazorat qiladi. Kechki soat to'qqizdagi ortiqcha qo'ng'iroq esa, umid qilamizki, tobora kamayib boradi.

Oybek QO'SHBOQOV,
Parlament tadqiqotlari instituti
bo'lim boshlig'i,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori

O'TMISHGA SAYOHAT – O'ZLIKNI ANGLASH YO'LI

Luvr, Ermitaj, Britaniya muzeyi. Bu nomlarni eshitgan har bir kishi tasodifan ularni yodga olmaydi: koʻz oldida noyob eksponatlar, buyuk asarlar, marmar zallardagi ulugʻvor haykallar va ming yillik sirlarni oʻzida saqlagan yodgorliklar jonlanadi. Ammo muzey deganda faqat ular emas, balki Samarqandning Afrosiyobi ostida uxlab yotgan tarix ham, Temuriylar tarixi muzeyi zallarida nafas olayotgan oʻtmish ham, Islom sivilizatsiyasi markazi va yangilangan Imom Buxoriy majmuasida qayta tiriltilgan koʻhna ilm ham nazarda tutiladi.

Dunyodagi eng mashhur muzeylar har yili oʻn millionlab mehmonni jalb qiladi va bu raqamlar nafaqat sayyohlik, balki jamiyatning madaniy ehtiyojini ham aks ettiradi. Masalan, Luvr muzeyi 2024-yilda 8,7 million sayyohni qabul qildi, bu esa 2023-yildagi 8,9 million koʻrsatkichga yaqin. Muzeyning eng yuqori natijasi 2018-yilda qayd etilgan boʻlib, oʻshanda 10,2 million kishi tashrif buyurgan.

2024-yilgi statistika muzeyning xalqaro mavqeini ham yaqqol koʻrsatadi: tashrif buyuruvchilarning 77 foizi chet ellik sayyohlar boʻlib, ulardan eng koʻpi — 13 foizi AQSHdan, qolganlari esa asosan Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Ispaniyadan kelgan. Yana bir muhim jihat — ularning 41 foizi 26 yoshdan kichik boʻlib, 66 foizi muzeyga ilk bor tashrif buyurganlardir. Bu esa muzeyning yangi avlod va yangi auditoriyani jalb qilish borasidagi salohiyatidan dalolat beradi.

Bu raqamlar muzey nafaqat oʻtmishni jonlantiruvchi maskan, balki bugungi avlod bilan tarix oʻrtasidagi tirik aloqa vositasi ekanini koʻrsatadi. Aynan shu jihat Oʻzbekiston uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki yurtimiz oʻziga xos boy tarixiy-madaniy meros va muzey infratuzilmasiga ega.

Yurtimiz muzeylariga tashriflar dinamikasiga nazar tashlasak, soʻnggi yillarda barqaror oʻsish kuzatilmoqda. Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2020-yilda pandemiya tufayli eng past koʻrsatkich qayd etilgan, yaʼni 1,5 million kishi muzeylarga tashrif buyurgan boʻlsa, 2021-yilda 5,1 millionga, 2022-yilda esa 6,5 millionga yetgan. 2023-yilda bir oz pasayish boʻlib, 5,7 million, 2024-yilda 4,8 million kishi muzeylarga kirgan. Ammo 2025-yilda

yana sezilarli oʻsish kuzatildi — mamlakat muzeylariga jami 6,1 million mahalliy va xorijlik mehmon kelgan.

Hozir mamlakatimizda 138 ta davlat muzeyi (filiallari bilan birga) faoliyat yuritadi, ulardagi eksponatlar soni 2 milliondan oshgan. Eng koʻp tashrif buyuriladigan muzeylar qatorida Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi, Registon ansambli, “Gʻalaba bogʻi” yodgorlik majmuasi tarkibidagi Shon-sharaf davlat muzeyi, Buxoro va Xivadagi muzey-qoʻriqxonalar yetakchilik qilmoqda. Bular yiliga yuz minglab, baʼzilar milliondan ortiq tashrif buyuruvchini qabul qiladi. Shu bilan birga, aksar mintaqaviy va shahar muzeylari, jumladan, Temuriylar tarixi davlat muzeyi kabi obyektlar yillik tashrif boʻyicha ulardan ancha orqada qolayotgan edi. Bu esa aynan muzeyni mahalliy aholi va yoshlarga yanada faloqroq tanishtirish zarurligini koʻrsatadi.

“Muzeylararo 90 kun”

Oddiy aholi, ayniqsa, yoshlar uchun yaqin va tanish muzeylarning hali ham yetarlicha “kashf etilmay” qolayotgani “Muzeylararo 90 kun” kabi loyihalar zarurligini yana bir bor asoslaydi. Aynan shu maqsadda Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi hamda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ushbu maʼnaviy-maʼrifiy ekskursiyalar loyihasi yoʻlga qoʻyildi.

Rejaga koʻra, jami 140 mingdan ziyod kishining muzeylarga jalb etilishi koʻzda tutilgan. Loyiha uch oylik davrni qamrab oladi va har oy uchun aniq reja belgilangan. Bundan tashqari, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, oliy va kasbiy taʼlim tashkilotlari bilan birgalikda



Boqiy meros

jami 708 ta ekskursiya tashkil etilishi rejalashtirilgan. Oliy taʼlim tizimida bu jarayon avgust bilan tugamaydi: sentyabr-oktyabr oylarida ham “Mustaqillik soatlari” tarbiyaviy mashgʻulotlari doirasida muzeylarga tashriflar davom etadi.

Loyihaning dastlabki bosqichi allaqachon natijalar bermoqda. Bugungi kunga qadar Toshkent shahri va Toshkent viloyatining 316 ta mahallasidan 20 mingga yaqin kishi, 128 ta umumiy oʻrta taʼlim maktabidan 15 mingdan ziyod oʻquvchi, 24 ta kasbiy taʼlim tashkilotidan 810 oʻquvchi, 19 ta oliy taʼlim tashkilotidan qariyb 1800 talaba va professor-oʻqituvchi turli tarixiy maskanlarga ekskursiyaga jalb etildi.

Bu davrda eng koʻp tashrif “Shahidlar xotirasi” (12062 nafar) va “Gʻalaba bogʻi” (14003 nafar) yodgorlik majmualariga toʻgʻri kelgan boʻlsa, Temuriylar tarixi davlat muzeyiga 8489, Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyiga esa 5055 kishi tashrif buyurgan. Jami olganda, rejalashtirilgan 4 ta muzey va yodgorlik

majmuasiga 40 mingga yaqin fuqaroning kelishi qisqa muddat ichida oʻrtacha bir tuman aholisi sonidan ancha koʻproq odamning tarix bilan yuzma-yuz boʻlgani demakdir.

Bu raqamlarni yanada yaxshiroq tushunish uchun ularni mamlakat miqyosidagi yillik koʻrsatkichlar bilan yonma-yon qoʻyib koʻraylik. Butun mamlakat boʻyicha muzeylarga yillik tashrif soʻnggi yillarda 4,8-6,5 million orasida oʻzgarib turgan. Bu, albatta, katta raqam, ammo u yuzlab muzeylar va 365 kunga boʻlingani uchun bitta oddiy muzeyning “kundalik hayoti” koʻpincha sokin va bir necha oʻn kishilik tashrif buyuruvchilar bilan oʻtardi.

Bugun esa “Muzeylararo 90 kun” loyihasi doirasida maqsad shunchaki yillik raqamni “koʻpaytirish” emas — aynan kam tashrif buyuriladigan, “unutilib qolgan” muzeylarga yoʻnaltirilgan holda, aholini, oʻquvchi yoshlarni koʻproq jalb etib, ularning intellektual salohiyatini yanada oshirishdir. Shu bilan birga, ushbu loyiha kechagi sokin statistikasi bugungi jonli, faol va maqsadli harakatga aylantirmoqda.

Taassurot va kashfiyot bilan

Goʻzal Qodirova, oʻqituvchi:

— Tarix darslarida biz koʻpincha sana, voqea va shaxslarni faqat darslik orqali oʻrgatamiz, bu esa oʻquvchilar uchun baʼzan quruq va mavhum tuyuladi. Muzeyga kelib, oʻsha davpning haqiqiy buyumlarini, xaritalarini, qoʻlyozmalarini koʻrgach, bola uchun tarix birdaniga “jonlanadi”. Men buni bugun oʻquvchilarimning koʻzlarida koʻrdim — ular eksponatlar oldida toʻxtab, savol berishni boshladi. Ilgari ham ayrim maktablar oʻz tashabbusi bilan ekskursiyalar uyushtirgan, lekin koʻpincha bu tartibsiz, tasodifiy edi — bir yili bor, ikkinchi yili yoʻq. “Muzeylararo 90 kun” loyihasining afzalligi shundaki, u aniq reja, aniq muddat va aniq miqdordagi oʻquvchilarni qamrab oladi, yaʼni bu endi tasodifiy tashabbus emas, balki tizimli yondashuv. Buni oʻqituvchi sifatida juda qadrlayman, chunki endi rejalashtirish ham osonlashdi.

Jahongir Roziqov, talaba:

— Koʻpgina zallarda interaktiv ekranlar va sensorli panellar mavjud. Ularda eksponat haqida qoʻshimcha maʼlumot, xaritalar, hatto 3D rekonstruksiylarni koʻrish mumkin. Bir zalda esa sunʼiy intellekt asosida ishlaydigan virtual gid bilan tanishdik. Undan “Bu hukmdor qachon yashagan?” yoki “Bu buyum qayerdan topilgan?” deb soʻrasangiz, darrov javob beradi. Bu meni hayratga soldi. Chunki men buni faqat xorijning yirik muzeylarida, internetda koʻrgan edim, endi esa u oʻzimizda ham bor.

Rostini aytib, men uchun muzey “borib koʻrib, chiqib ketiladigan joy” edi. Endi esa u bilim, tarix bilan texnologiya tutashgan maskan ekanini angladim. Ayniqsa, biz, yoshlar uchun bu juda muhim, chunki tengdoshlarimiz axborotni interaktiv, jonli shaklda qabul qilishga oʻrganib qolgan. Agar muzey ham shu tilda gaplasha olsa, u koʻproq tashrif buyuruvchini, ayniqsa, yoshlarni oʻziga tortadi.

Dilrabo Tojiyeva, mahalla faoli:

— Bugungi yoshlar koʻp vaqtini telefon va internetda oʻtkazadi. Natijada ular oʻzi bilmagan holda yurti tarixidan uzoqlashib qolishi mumkin. Muzeyga kelganda esa inson birdaniga oʻtmish bilan yuzlashadi. Bu esa ularida masʼuliyat va gʻurur tuygʻusini uygʻotadi.

Bugun ham mahalladoshlarimiz juda qiziqish bilan keldi, koʻpchilikning bu muzeyga birinchi tashrifi ekan. Shunday tashabbuslar davom etishi kerak, chunki natija darhol koʻrinmasada, u yoshlarning ongida, dunyoqarashida izini qoldiradi.

Luvpning 8,7 milliongacha tashrif buyuruvchisi va Oʻzbekiston muzeylariga besh kunda 9,5 mingga yaqin mehmon kelishi

bu — raqamlarning miqyosi turlicha boʻlsa-da, mohiyati bir xil: muzey insonni oʻtmish bilan bogʻlaydigan koʻprikdir. Farq shundaki, Luvrga tashrif koʻpincha sayyohlik tabiatiga ega boʻlsa, “Muzeylararo 90 kun” loyihasi tashabbusi tubdan boshqacha bu — davlat darajasida tashkil etilgan, maqsadli va tizimli ravishda yoshlarni, mahalla aholisini, talabayu oʻquvchilarni oʻz tarixi bilan yuzma-yuz qiluvchi tarbiyaviy jarayondir.

Minglab kishilarni uch oy davomida muzey va yodgorlik majmualariga olib borish shunchaki statistika emas, balki bir butun avlodning milliy gʻurur, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish uchun investitsiyadir. Aynan shu nuqtada Luvr bilan Afrosiyob, Ermitaj bilan Imom Buxoriy majmuasi bir-biriga yaqinlashadi. Chunki ularning barchasi oxir-oqibat insoniyatning tirik xotirasini kelajak avlodlarga yetkazish vazifasini bajaradi.

“Muzeylararo 90 kun” — moziyga yangicha nigoh bilan sayohat. Yangi avlodning oʻz ildizlariga qaytish yoʻlidagi muhim qadami.

Bahora AHMEDOVA,
Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat
markazi Axborot xizmati rahbari,
Shohista YUNUSALIYEVA,
markaz xodimasi

Poytaxtimizning qoq markazida joylashgan Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi moziy silsilasini oʻz bagʻrida asrab kelayotgan, uzoq yillik boy oʻtmishga ega boʻlgan oʻzbek xalqining qadim zamonlardan to shu kungacha boʻlgan tarixi va madaniyatini toʻliq aks ettiruvchi eng yirik maʼrifiy maskanlaridan biri hisoblanadi.

Ikki yillik rekonstruksiya soʻng oʻz faoliyatini qayta boshlagan muzey ekspozitsiyalari orqali ulugʻ allomalarimizning hayoti, ilmiy faoliyati, buyuk kashfiyotlari va insoniyat rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi bilan yanada yaqindan tanishish imkonini yaratdi.

Yakshanba kuni oila aʼzolarim hamrohligida muzeyga bordik. Zero, bu moʻʼjaz maskanga tashrif buyurgan har bir kishi tariximizning nechogʻliq boy ekanini, uning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qoʻshgan beqiyos hissasini chuqur his etadi.

Muzey ichida sayr qilar ekanmiz, amalga oshirilgan rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari natijasida barcha ekspozitsiyalar zamonaviy muzeysunoslik talablari asosida tubdan yangilanganiga guvoh boʻldik. Bu esa nafaqat muzeyning tashqi koʻrinishi, balki uning maʼnaviy-maʼrifiy ahamiyatini yanada yuksaltirgani bilan ham eʼtiborimizni tortdi.

Har bir ekspozitsiya, tarixiy jarayonlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta talqin etilgan boʻlib, eksponatlarni namoyon etishda ilgʻor va interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanilgan.

Mazkur yangilanishlar esa oʻtmish voqea-hodisalarini yaxlit gʻoya doirasida ochib beradi. Tashrif buyuruvchilar qalbidan tarixiy tafakkurni shakllantirib, ularning qimmatli,



nodir meros namunalari bilan bevosita muloqotini jonlantirishga xizmat qilmoqda.

Muzey eksponatlarini tomosha qilar ekanmiz, 1972-yilda Surxondaryo viloyatidagi Dalvarziyintepadan topilgan, umumiy ogʻirligi 36 kilogramm boʻlgan bezaklar va qymma tillardan iborat mashhur xazina namunalari eʼtiborimizni tortdi. Chunki sof quyma tillarni yaqindan koʻrishning gash butunlay oʻzgacha boʻlar ekan.

Qatagʻon qurbonlarini olib ketishda foydalanilgan qora rangli maxsus avtomobil esa koʻnglimizga bir oz gʻashlik soldi.

Oʻtmishning qora quyunlari ichra kechgan jadid bobolarimizning hayoti koʻz oʻngimizda namoyon boʻlganday taassurot uygʻotdi.

1916-yilgi mardikorlikka bagʻishlangan qoʻshiqlar, Ikkinchi jahon urushi yillarida 14 nafar yetim bolani bagʻriga borgan Shomahmudovlar oilasi va ular hovlisining maketi, Xiva, Buxoro va Qoʻqon xonlarining portretlari kabi koʻplab noyob eksponatlarni koʻzdan kechirar ekanmiz, xayolimizda oʻtmish va bugungi yorugʻ kunlarning nurli ranglari bir-biri bilan qisqa muddatga tutashganday boʻldi.

Ekspozitsiyaning yakuniy qismida Oʻzbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi hamda 2016-2026-yillarda amalga oshirilgan keng koʻlamli izchil islohotlar natijalari oʻz ifodasini topgan.

Muzeyning eng gʻaroyib qismlaridan biri koʻzguli multimedia xonasi boʻldi. Koʻzgusimon yuzalar sharo-fati bilan paydo boʻlgan tasvirlar insonni har tomondan qurshab olib, jarayonda toʻlaonli ishtirok etish hissini yaratadi. Bu yerda Oʻzbekistonning turli davrlariga bagʻishlangan va bir-birini

almashtirib turuvchi vizual hikoyalar namoyish etiladi. Har bir peshtaxtada uch tilda izoh berilgan lavhacha bor.

Xulosa qilib aytganda, boʻlimlardagi har bir ashyo sayohatchilarga, yurtimiz taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilgan oʻzgarishlar bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Yangilangan ekspozitsiyalar yurtimizning boy tarixi va madaniy merosini keng jamoatchilikka yetkazish, milliy oʻzlikni anglashni mustahkamlash, muzeyning ilmiy-maʼrifiy faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ona yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy audio va vizual texnologiyalarning qoʻllanilishi esa muzeyni oddiy tomosha joyidan interaktiv maʼrifat maskaniga aylantirgan. Bu yerga keluvchilar faqat eksponatlarni koʻribgina qolmaydi, balki uni his etadi va tarix bilan goʻyo bevosita muloqotga kirishadi.

Ana shu jihat muzey taʼsirchanligini bir necha barobar oshirib, har bir tashrif buyuruvchi qalbidga unutilmas taassurot qoldiradi. Nazarimda, taʼlim tizimida ham bunday imkoniyatlardan keng foydalanish lozim. Ayrim tarix darslarini ana shunday muzey muhitida tashkil etish yoshlar uchun juda katta samara beradi. Chunki inson tafakkuri kitobda oʻqilgan maʼlumotdan koʻra koʻz bilan koʻrgan, qalban his etgan tarixni yaxshi qabul qiladi.

Demoqchimakni, muzey muhiti kelajak avlodda oʻtmishga nisbatan hurmat, milliy merosga daxldorlik tuygʻusini shakllantiradi. Eng muhimi, bunday zamonaviy muzeylar millatning maʼnaviy xotirasini saqlash

bilan birga uni yangi avlod ongiga chuqur singdirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu esa, oʻz navbatida, kelajakka ishonch bilan qadam qoʻyayotgan jamiyat uchun mustahkam maʼnaviy poydevor yaratadi.

Muzey xodimlarining maʼlum qilishicha, Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi 2024-yilda taʼmirlash uchun yopilgan. Ikki yil davomida professional tarixchilardan iborat jamoa turkiyalik dizaynerlar bilan hamkorlikda ekspozitsiyaga yangicha ruh bagʻishlab, maydonni zamonaviy interaktiv muzeyga aylantirdi. Endi bu yerda tarix nafaqat eksponatlar, balki yorugʻlik, ovoz va raqamli texnologiyalar vositasida ham oʻrnatilgan.

Muzey fondida 350 mingdan ortiq eksponat, mintaqa tarixini eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha aks ettiruvchi 70 mingdan ziyod arxeologik topilma, 100 mingga yaqin numizmatika toʻplamlari, qoʻlyozmalar, fotohujjat va etnografik materiallar saqlanadi. Yangilanish jarayonida zamonaviy video va audio texnologiyalar keng joriy etilib, muzeysunoslik sohasidagi eng soʻnggi yutuqlardan samarali foydalanilgan. Shu yil 150 yoshga toʻlishi kutilayotgan Oʻzbekiston tarixi davlat muzey uchun Yangi Toshkentdagi yangi bino qurilishi ham rejalashtirilgan.

Eksponatlarning axborotbopligi va ularni namoyish etish sifatiga alohida eʼtibor qaratilishi muzeyning mazmun-mohiyatini yanada boyitgan. Eng asosiysi, yangilangan qiyofada qayta ochilgan muzey vatanimiz mustaqilligining 35 yilligiga munosib sovgʻa boʻldi. Bugungi kunda bu maskan nafaqat boy tarixiy merosimizni asrab-avaylashga, balki uning maʼnaviy qimmatini kelajak avlodlarga yetkazishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Toshkent boʻylab madaniy turizm yoʻnalishlarining muhim tarkibiy qismiga aylanib, xorijlik va mahalliy sayyohlarga Oʻzbekistonning koʻp asrlik tarixi, boy madaniyati va milliy anʼanalari bilan yanada chuqurroq tanishish imkoniyatini taqdim etadi.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
Oʻzbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyatda kompyuter markazida shifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.

E-mail: info@yuz.uz
Beʼc-air: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qogʻoz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan Gʻoziddinov
Musahhih: Akbar Qarshiye
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy